

**DIN VA FALSAFA UYG'UNLIGI: NAZARIY-TARIXIY
YONDASHUV**

Rustamov Akrom

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti

Annotatsiya: mazkur maqolada din va falsafa o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning tarixiy shakllanishi, umumiylik va farqli jihatlar tahlil qilinadi. Dinning inson ruhiyatidagi o'rni va falsafaning aql-idrok asosida mavjudlikni tushuntirishga bo'lgan intilishi uyg'unlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Islom falsafasi namunalari asosida din va falsafa sintezi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: din, falsafa, uyg'unlik, islom falsafasi, aql, vahiy, hikmat.

**ГАРМОНИЯ РЕЛИГИИ И ФИЛОСОФИИ: ТЕОРЕТИКО-
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПОДХОД**

Рустамов Акром

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Аннотация: в статье анализируется взаимосвязь религии и философии, их историческое становление, общие черты и различия. Роль религии в психике человека и стремление философии объяснить бытие на основе разума рассматриваются с точки зрения гармонии. Синтез религии и философии анализируется на примерах исламской философии.

Ключевые слова: религия, философия, гармония, исламская философия, разум, откровение, мудрость.

**HARMONY OF RELIGION AND PHILOSOPHY: A
THEORETICAL-HISTORICAL APPROACH**

Rustamov Akrom

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: *this article analyzes the relationship between religion and philosophy, their historical formation, commonalities and differences. The role of religion in the human psyche and the desire of philosophy to explain existence on the basis of reason are considered from the perspective of harmony. The synthesis of religion and philosophy is analyzed based on examples of Islamic philosophy.*

Keywords: *religion, philosophy, harmony, Islamic philosophy, reason, revelation, wisdom.*

Kirish

Din va falsafa insoniyat tafakkurining ikki asosiy ustunidir. Dastlab qarama-qarshi ko‘ringan bu ikki soha aslida bir-birini to‘ldiruvchi, insonni haqiqat sari yetaklovchi ikki yo‘ldir. Din-ilohiy vahiy asosida inson hayotiga ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘l ko‘rsatsa, falsafa-aql va tafakkur orqali mavjudlik mohiyatini tushuntiradi. Shu bois, ularning uyg‘unligi haqida ilmiy-nazariy mulohazalar yuritish bugungi davrda ham dolzarbdir.

Asosiy qism

Din-bu ilohiy manbaga tayanuvchi, insonni ezgulikka undovchi, ruhiy-ma‘naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi tizimdir¹. U inson qalbini poklaydi, jamiyatni birlashtiradi, axloqiy me‘yorlar orqali ijtimoiy tartibni ta‘minlaydi. Qur’oni Karimda: “*Biz har bir ummatga o‘z payg‘ambarini yubordik...*” deyiladi². Bu ilohiy ta‘limotning universal xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Falsafa-bu borliq, ong, bilim, qadriyatlar haqida aqliy mushohada yuritishdir³. Uning asosiy vazifasi -haqiqatni bilish, insonning dunyoqarashini shakllantirish va voqelikni tushunishga xizmat qilishdir. Falsafa tafakkurning chuqur qatlamlariga kirib boradi va din singari “haqiqat” tushunchasini o‘rganadi, biroq bu yo‘lda u asosan aqlni

vosita sifatida qo'llaydi⁴. Din ham, falsafa ham axloqiy kamolotga erishishni muhim deb biladi. Masalan, adolat, halollik, sabr-toqat kabi tushunchalar ikkala sohada ham yuksak qadriyat sanaladi. Falsafa inson tafakkuri orqali borliqni tushunishga harakat qilsa, din vahiy orqali inson va borliq o'rtasidagi aloqani tushuntiradi. Har ikki soha ham insonning mukammallikka, ma'naviy tozalikka intilishini targ'ib qiladi.

Insoniyat tafakkurining eng yuksak cho'qqilaridan biri bu – haqiqatni izlashdir. Bu izlanishning ikki muhim yo'nalishi mavjud: biri **din**, ikkinchisi esa **falsafadir**. Har ikkisi ham insonning hayot mazmuni, borliq mohiyati, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, ruh va jism, hayot va o'lim kabi yuksak savollarga javob izlaydi. Aslida, din va falsafa bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, boyituvchi tafakkur shakllaridir.

Din-bu ilohiy nur, inson qalbini poklaydigan, unga ruhiy orom baxsh etadigan ma'naviy manba. U kishiga hayotda qanday yashash kerakligini, kim bo'lishi va qanday inson bo'lib yetishishi lozimligini ko'rsatadi. Falsafa esa inson aqlining chuqur tahliliy mahsuli bo'lib, borliq va ong, haqiqat va ongning imkoniyatlarini sinchiklab o'rganadi. Agar din qalbg'a murojaat qilsa, falsafa aqlni uyg'otadi. Ammo maqsad bitta-haqiqat sari yo'l olish. Tarixga nazar tashlasak, ko'plab buyuk allomalar aynan din va falsafani uyg'unlashtirishga intilgan. Abu Nasr Forobiy aql va vahiyini bir-birini to'ldiruvchi kuch deb bilgan. Ibn Sino esa falsafiy tafakkur orqali diniy haqiqatlarga yanada chuqurroq anglash imkonini yaratgan. Imom G'azzoliy esa qalb va aql uyg'unligini ilmiy va axloqiy asosda isbotlagan. Bugungi kunda ham din va falsafa o'rtasidagi uyg'unlik alohida ahamiyat kasb etadi. Axloqiy inqiroz, ruhiy iztiroblar, ekologik muammolar fonida

insoniyat yana ma'naviyatga yuz tutmoqda. Aynan shu nuqtada dinning ruhiy poklanishga chaqiruvi va falsafaning tahliliy yondashuvi bir-biriga suyanchiq bo'la oladi. Ular jamiyatni axloqiy tanazzuldan, shaxsni esa ma'naviy bo'shliqlardan asraydi. Shunday qilib, din va falsafa — bu ikki daryo singari, biri qalbdan, biri esa aqldan oqadi. Ular birlashganda esa insoniyat haqiqat ummoniga yetib boradi. Zero, nur bilan tafakkur uyg'unlashgan joyda komil inson yetishadi.

Shunga qaramay, ikkisi ham insonni haqiqatga yetaklashni maqsad qiladi. Ayniqsa, Islom madaniyatida bu uyg'unlik aniq ko'zga tashlanadi⁵. Islom tarixida ko'plab mutafakkirlar-Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Ibn Rushd kabi allomalar din va falsafani birlashtirgan. Forobiy "Baxt-saodatga erishish" asarida din va falsafani yagona haqiqat sari yo'naltiruvchi ikki yo'l deb ko'rsatadi⁶. Ibn Sino esa, aql va vahiy uyg'unligida haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidlaydi⁷. G'azzoliy esa "Tahofut al-falasifa" asarida falsafa tarafdorlarini tanqid qilgan bo'lsa-da, u ham din asosida aqliy tafakkurni muhim deb bilgan⁸. Ibn Rushd esa bu tanqidlarga qarshi chiqib, din va falsafa bir-biriga zid emasligini isbotlashga harakat qilgan⁹.

Xulosa

Din va falsafa o'zaro zid emas, balki uyg'un holda insoniyat tafakkurini boyituvchi, haqiqatga yetaklovchi ikki yo'ldir. Ularning bir-birini to'ldirishi tarixan isbotlangan bo'lib, bugungi globallashuv jarayonida ham dinning ma'naviy-ma'rifiy asoslari va falsafaning tanqidiy tafakkur usullari uyg'unlashsa, jamiyatda sog'lom fikr, tinchlik va barqarorlik mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nasr, Seyyid Hossein. *Knowledge and the Sacred*. State University of New York Press, 1989, 14–17-betlar.
2. Qur'oni Karim. Nahl surasi, 36-oyat.
3. Copleston, Frederick. *A History of Philosophy*, Vol. I. Image Books, 1993.
4. Russell, Bertrand. *The Problems of Philosophy*. Oxford University Press, 1959.
5. Al-Attas, Syed Muhammad Naquib. *Islam and Secularism*. ISTAC, 1993.
6. Forobiy. *Saodatga erishish yo'li haqida*. Tarj. va sharh: I. Sulton. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1996.
7. Ibn Sino. *Kitob ash-Shifo*. Qism: Ilm al-Mantiq. Klasik nashr.
8. G'azzoliy. *Tahofut al-Falasifa* (Faylasuflar tanqidi). Tarj. A. Abdulhamid.
9. Ibn Rushd. *Tahafut al-Tahafut* (Tanqid tanqidi). Tarj. Van den Bergh, 1954.